

## LITSENZIYA OLISH UCHUN ARIZA BERISH VA UNI KO'RIB CHIQISH, LITSENZIYANI QAYTA RASMIYLASHTIRISH HAMDA O'ZGARTIRISH

Gulmurodov Firuzbek Olimjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19850946>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada litsenziya olish uchun ariza berish tartibi, uni ko'rib chiqish jarayoni hamda litsenziyani qayta rasmiylashtirish va o'zgartirish masalalari huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Litsenziyalash tizimi davlat tomonidan muayyan faoliyat turlarini tartibga solish va nazorat qilishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Tadqiqotda litsenziya olish jarayonining bosqichlari, vakolatli organlarning arizalarni ko'rib chiqish muddati va talablari, shuningdek litsenziya shartlarini o'zgartirish hamda uni qayta rasmiylashtirish asoslari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** litsenziya, litsenziyalash tartibi, ariza berish, litsenziyani ko'rib chiqish, qayta rasmiylashtirish, litsenziyani o'zgartirish, vakolatli organ, huquqiy tartibga solish.

Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizamning 12-bandiga muvofiq talabgor litsenziya olish uchun ariza berishda o'z elektron raqamli imzosidan foydalangan holda litsenziya olish uchun "Litsenziya" AT yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatdan o'tadi hamda ixtisoslik turini tanlab, elektron shaklda ariza to'ldiradi.

Ta'kidlash lozimki, "elektron raqamli imzo – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo" hisoblanadi.

Nizomda mustahkamlangan talablarga muvofiq arizada quyidagilar aks ettiriladi:

- talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- telefon raqami, elektron pochta manzili (mavjud bo'lsa);
- doimiy yashash joyi;
- talabgor amalga oshirmoqchi bo'lgan ixtisoslik turi.

Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, talabgorning malaka imtihonidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi va Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari tomonidan talabgorning malaka imtihonidan o'tganidan so'ng darhol "Litsenziya" ATga kiritiladi.

Bu masalaning e'tiborli jihati agarda tizimga talabgorning malaka imtihonidan o'tganligi to'g'risida ma'lumotlar kiritilmasa, litsenziya olish uchun ariza yuborish imkoniyati vujudga kelmaydi.

Advokatlik faoliyatini litsenziyalashda "Litsenziya" ATning imkoniyatlaridan biri shundaki, talabgor kelgusida o'z faoliyatini advokatlik byurosini tashkil qilgan holda amalga oshirish istagini bildirsa, litsenziya olish uchun to'ldiriladigan arizaga qo'shimcha tarzda advokatlik byurosi ustavini ilova qilgan uni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi so'rovnoman ixtiyoriy ravishda to'ldirish imkoniyati mavjud. Shuningdek, nizam talablariga muvofiq ariza berish jarayonida talabgor tomonidan litsenziya talablari va shartlariga mosligini va ularga rioya etishini tasdiqlashi talab etiladi.

Ta'kidlash lozimki, talabgor tomonidan arizada kiritilgan ma'lumotlar "Litsenziya" AT idoralararo hamkorlik tizimlarida mavjud ma'lumotlar asosida dastlabki tarzda avtomatik ravishda taqqoslanadi hamda tekshiriladi.

Xususan, ariza quyidagi hollarda avtomatik tarzda qabul qilinmaydi:

noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar kiritilganligi Litsenziya" AT orqali aniqlanganda;  
 nizomning 1-Illovasi (Advokatlik faoliyatini litsenziyalash PASPORTI) 6-bandida nazarda tutilgan yig'im to'lanmaganda (Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi);  
 litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi tasdiqlanmaganda;  
 litsenziya reyestrda talabgor tanlagan ixtisoslik (ixtisosliklar) bo'yicha kiritilgan va amalda bo'lgan litsenziyasi mavjud bo'lgan taqdirda;  
 talabgorning advokatlik faoliyati muayyan muddatga to'xtatilganda;  
 talabgorning tegishli faoliyat bilan shug'ullanishi sudning qaroriga asosan muayyan muddatga taqiqlanganda.

Shu o'rinda, nizomga muvofiq mazkur asoslardan tashqari boshqa asos bilan ariani qabul qilmaslikka yo'l qo'yilmaydi.

Nizomning 25-bandida litsenziya berishni rad etishga asos bo'luvchi holatlar keltirilgan.

Birinchidan, talabgorda Advokatura to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan holatlar mavjudligi. Xususan, belgilangan tartibda muoamalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tadqiqot doirasidagi o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, A.R.Matmurotov o'zlarining ilmiy ishlarida ushbu cheklovlarining ayrim jihatlarini o'rgangan holda quyidagicha fikr bildirgan: "Ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligida yuqorida bayon qilingan cheklovlardan tashqari advokat maqomini olish yoki advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun ba'zi cheklovlar belgilangan. Jumladan, qasamyodni buzgan bo'lsa, korrupsiyaga oid harakatlar sodir etgani uchun davlat organlari, sud organlari, adliya organlari, prokuratura, advokatura, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, harbiy, yuridik va davlat xizmatidan bo'shatilgan yoki ulardan intizomiy javobgarlikka tortilgan yoxud salbiy asoslar bo'yicha bo'shatilgan bo'lsa, advokatlik faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlari uchun advokat uyushmasidan chiqarilgan yoki yuridik yordam ko'rsatish litsenziyasidan mahrum qilingan bo'lsa, ikki marotaba advokatlik litsenziyasidan mahrum qilingan bo'lsa, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror qonuniy kuchga kirgan bo'lsa, psixotrop, narkotik, zaharli moddalar yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilsa, talabgorning turmush o'rtog'i sudya, prokuror yoki tuman advokatlar kollegiyasi vakolatiga kiruvchi prokuratura organlarida ishlayotgan bo'lsa, doimiy mehnatga yaroqsiz deb topilgan bo'lsa, o'zining jismoniy kamchiliklari yoki ruhiy ahvoli tufayli uzoq vaqt davomida advokatlik vazifalarini munosib darajada bajarish imkoniga ega bo'lmasa, advokatlik kasbi va obro'yiga muvofiq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, intizomiy jazo choralari qo'llanilib, unda bunday faoliyatni taqiqlash yoki hay'at ro'yxatidan chiqarishni nazarda tutuvchi intizomiy jazo choralari qo'llanilgan bo'lsa, advokat bo'lishi mumkin emas".

Bu borada huquqshunos olimning fikrlariga to'liq qo'shilaman.

Ikkinchidan, ushbu Qonunning 3<sup>1</sup>-moddasining ikkinchi qismida belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi ya'ni advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxs (bundan buyon matnda

talabgor deb yuritiladi) litsenziya olish uchun advokatlik tuzilmasida (advokatlik byurosida, advokatlik firmasida, advokatlar hay'atida, yuridik maslahatxonada) kamida uch oy muddat stajirovka o'tashi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi shart.

Endilikda litsenziyani qayta rasmiylashtirish va o'zgartirish tartibini tahlil qilamiz.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirish uchun asos litsenziatning familiyasi, ismi yoki otasining o'zgarishi bo'lsa, litsenziyani o'zgartirish bu litsenziatning arizasiga asosan advokatlik faoliyatini boshqa ixtisoslik turi bilan kengaytirishda litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziyaning o'zgartirilishi hisoblanadi.

Xususan, litsenziyani qayta rasmiylashtirish tartibida litsenziatning familiyasi, ismi va otasining ismi o'zgarganda u besh ish kuni ichida "Litsenziya" AT yoki YIDXP orqali litsenziyani qayta rasmiylashtirish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlarni va qayta rasmiylashtirish uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda, ariza yuborishi orqali murojaat qilinadi.

Litsenziyani o'zgartirishda esa litsenziat bir ixtisoslik turi bo'yicha amalga oshirayotgan advokatlik faoliyatini boshqa ixtisoslik turi bilan kengaytirish huquqiga ega bo'ladi, bunda advokat litsenziyani o'zgartirish haqida "Litsenziya" AT yoki YIDXP orqali ariza taqdim etadi. Litsenziyalovchi organ tomonidan advokatning avvalgi litsenziyasiga qo'shimcha ixtisoslik turiga oid ma'lumotlar kiritilgan holda o'zgartirishlar kiritiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 263-sonli Qarori
2. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustda qabul qilingan "Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqidagi 432-sonli Qarori